OGAHIYNING “GULSHANI DAVLAT” ASARIDA HARAKAT FE’LLARI SINONIMIYASI

Sabirova Dilfuza Farhod qizi,
Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi 2-kurs magistranti,
Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “Gulshani davlat” asarida qo‘llangan fe’llarning mazmuniy guruhlaridan biri harakat fe’llarning semantik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida asarda uchraydigan harakat fe’llarning ot tarkibli qo‘shma fe’l shakllari o‘rganilib, ularning sinonimik qator hosil qilish xususiyati tahlil etilgan. Xususan, yurmoq, o‘rnashmoq va ov qilishma’nolarini anglatuvchi qo‘shma fe’llar aniqlanib, ularning asardagi funksional vazifasi hamda badiiy matndagi uslubiy yuki yoritilgan. Shuningdek, qo‘shma fe’llarning kontekstga bog‘liq holda semantic differensiasiyasi va ma’no nozikliklari o‘rganilib, ularning leksik-semantik tahlili amalga oshirilgan.*

Kalit so‘zlar: *sinonim, harakat fe’llari, ot tarkibli qo‘shma fe‘l, ko‘makchi fe‘l, arabiy, forsiy leksemalar.*

Ish-harakat va holatni ifodalovchi fe’l so‘z turkumining semantik tasnifi shu paytgacha olimlar tomonidan adabiyot va darsliklarda turlicha bayon qilingan. Turkiy tillardagi fe’llarning mazmuniy guruhlarini dastlab N. Q. Dimitriev belgilab chiqqan edi[1]. U fe’llarni 4 semantik guruhga ajratadi: I nutq fe’llari. II sezgi fe’llari, sezgi ifodalovchi fe’llar. III faoliyat ifodalovchi fe’llar. IV harakat fe’llari. Prof.Z.Budagova ozarbayjon tilidagi fe’llarni 5 semantik gruppaga ajratib tekshiradi.[2] G.Kuliyev o‘zining “Fe’l boshqaruvi” mavzusida yozgan kandidatlik dissertatsiyasida esa fe’llarni 10 xil semantik gruppaga ajratadi.[3] Olima Maqsuda Sadiqovaning “Fe’l stilistikasi” deb nomlangan ishida fe’llarni semantik guruhlarga ajratish masalasiga quyidagicha fikr bildiradi: “Bizning fikrimizcha, tekshirishni qulay yo‘l bilan olib borish uchun gruppalar sonini buncha ko‘paytirmay, dastlab yirik gruppalar belgilab, masalan, avval fe’llarni ikki katta gruppaga - harakat va holat fe’llari gruppasiga ajratib, so‘ng ularni o‘z ichida yana mayda gruppalarga ajratgan holda tekshirish mumkin.”[4] Bizningcha ham fe’llarni semantik jihatdan tahlil qilishda

[1] Н. К. Дмитриев. Строй тюркских языгков, М., 1962, стр. 579—592.
[2] Z.Budagova. Fe'llərin lüğəti mənâ qrupları, Azərbeycan dilinin qrammatikası, I Bissə, AzSSR EA nəşri, 1960, səh. 91—94.
[3] Н. К. Дмитриев. Строй тюркских языков, М., 1962, стр. 579—592.
[4] Sodiqova M. Fe’l stilistikasi. Fan nash. Toshkent 1975. B-61-62

ularni asosiy guruhlar sifatida tasnif qilib, katta guruhlar ichida kichik ma'noviy gruppalarni shakllantirish samaraliroq bo'lishi mumkin.

Yuqorida bayon qilingan fe'lning asosiy semantik guruhlaridan bo'lmish shaxs va predmetning harakatini ifodalovchi harakat fe'llarining Ogahiy leksikasida, xususan, biz tahlil qilayotgan "Gulshani davlat" tarixiy asaridagi ishtirokini quyidagi misollar orqali ko'rishimiz qilamiz. Asar bilan tanishish mobaynida Sayyid Muhammadning xon bo'lishi, yavmutlarning qirg'ini, xon tomonidan vazifa va unvonlarga aka-ukalari va qarindoshlari, qabila peshvolaridan tayinlanishi, jumladan, akasi Sayyid Mahmud to'raga amirumarolik va Hazorasp hokimligi berilgani va hokazolar; Sayyid Muhammad Bahodirxon davridagi turkmanlar, Zorliqxon va Muhammad Panohga qarshi kurashlarning tafsilotlari, ruslar bilan birinchi to'qnashuv kabi muhim tarixiy tafsilotlar haqida[5] bilib olamiz . Bu kabi to'qnashuvlarda aholining muqim yashashi qiyin bo'lgan va janglarda hukmdor, lashkarlar ko'p bora ko'chib yurishlariga va yangi joylarda qo'nim topishlariga to'g'ri kelgan. Shu sababli Ogahiy asarni bayon qilish mobaynida *joylashmoq, o'rnashmoq* tushunchasini anglatuvchi fe'llardan ham ancha keng foydalangan. Jumladan, ushbu misolda makon et- "Soribiy otlig' manzilni o'rduyi kayhonpuyga *makon etti*"(GD,242a) qo'shma fe'lini qo'llaydi. Bu fe'lni "Jayhun qirg'og'i urduyi humoyun va sipohi zafarnamunga *manzil va maskan bo'ldi*" (GD,175a) *manzil va maskan bo'ldi* shakli ham asarda uchraydi. *Orom tut-* qo'shma fe'li ham ayni shu ma'noda qo'llangan bo'lib, bu ot tarkibli qo'shma fe'l forsiy orom oti bilan tut- fe'li birikishi orqali hosil qilingan: "Maydonda tog'dek tamkin bilan *orom tutub*…" (GD,243b) Orom so'zi "Navoiy sarlari lug'ati"da quyidagi ma'nolarda uchraydi: 1. Tinish, sukun topish, qaror; 2. Rohat, istirohat, huzur; 3. O'ltirib qolish, bir joyda turib, istiqomat etib qolish[6]. Yuqoridagi misolda ham biror joyda qo'nim topish ma'nosida ifodalangan.

O'rnashmoq fe'lining yana bir sinonimi *maskan qil-* qo'shma fe'lidir: "Qorayof mavze'ida sangar qazib, el va ahshomiga ani *maskan qildilar*" (GD, 228b). Asarda bu fe'lning *maskan tut-* varianti ham uchraydi: "... *maskan tutub* o'turgan Rossiya toifasiga yubormish erkanlar." (GD,210b)

Ogahiy taka qavmining qochoriya lashkari ustidan qilgan g'alabasining tasvirida *maskan va ma'man qilib o'turdilar* ko'rinishidagi qo'shma fe'ldan foydalanadi: "Marv viloyatini o'zlariga *maskan va ma'man qilib o'turdilar.*" (GD,231b) Ma'man

[5] Muhammad Rizo Erniyozbek O'g'li Ogahiy. Asarlar. 6-jild. – Toshkent: Sharq. 2019. Abdulla O'rozboev. Davlat gulshanining tuganmas tarovati B-257

[6] Ibrohimov S., Shamsiyev P. Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nash. 1972 B-487

arabiy (makon, vatan) ot bo‘lib, qil- fe’l shakli orqali hosil qilingan. Bu fe’l Alisher Navoiyning “Nazmul-javohir” asarida quyidagicha ko‘rinishda uchraydi:

Har kimki xushuy uyini *maskan qilgay,*
Olam sijnini haq unga *ma’man qilgay*.[7]

O‘rnashmoq fe’lining asarda ishtilgan sinonimlaridan yana biri biri *mutamakkin bo‘l*- dir. Bu fe’l arabcha *mutamakkin* (muqim) sifati va *bo‘l* fe’li orqali shakllangan qo‘shma fe’l sanaladi: “Burka otliqlariga vorid bo‘ldi va anda to‘rt kun *mutamakkin bo‘lib*,…” (GD,174b) Alisher Navoiyning “Munshaot” kulliyotida bu fe’l shunday shaklda keladi: “...va sipehr anjumanida kim bir izzat masnadig‘a *mutamakkin bo‘ldukim*, oqibat yuz mazallat tufrog‘ig‘a o‘lturmadi.”[8]

“…Nasrullohonning davlati soyasin o‘ziga *panoh qildi*.” (GD,180a) ushbu parchada ham *panoh qildi* qo‘shma fe’li orqali *o‘rnashmoq* tushunchasi ifodalangan bo‘lib, bu fe’lning pana joyda o‘rnashmoq ma’nosi ham mavjud. *Tavaqquf ko‘rguzmoq* qo‘shma fe’li ham matnda yuqoridagi fe’llar bilan sinonomik qator hosil qilgan: “…o‘n uch kun *tavaqquf ko‘rguzdi*” (GD,178a).

O‘rnashmoq tushunchasining ziddi sifatida *ko‘chmoq* tushunchasi ham turli fe’llar va ularning badiiy ifodalari orqali berilgan. Masalan, “…ag‘nom va amvoli bila o‘z qal’asidan *ko‘chub*…” (GD,32b), “…asli vatanimizg‘a *ko‘chub* bormoq…” (GD,84a), “…dushanba erdi, andin *ko‘chuldi*…” (GD,174a) *ko‘chuldi* fe’li majhul nisbat shaklida ifodalangan. Oyoq harakati bilan bog‘liq harakat fe’llaridan *yurmoq* fe’lining ham turli ma’nodoshlarini keltirib o‘tamiz: “…hukumatining markazig‘a *ravona qildi*…” (GD,234b), “…asr hangomida dorulxilofa Xivaqg‘a *vorid bo‘lib*…” (GD,245a) *vorid bo‘lib* (arabcha-vorid) leksemasi kelmoq ma’nosini anglatgan.

Ogahiyning boshqa tarixiy asarlarida ham yurmoq, biror manzilga tomon ma’nosida sinonim fe’llar ko‘plab uchraydi.

1. Ozim bo‘lmoq: “...Buxoro sori ozim bo‘ldilar...” (ZT, 415b)

2. Azimat ko‘rguzmak: “...Buxoro chapovuliga ijozat olib, azimat ko‘rguzdi” (ZT, 415b)

3.Tavajjuh ko‘rguzmak: “Hazratning ...Buxoro qasdiga tavajjuh ko‘rguzgoni...” (ZT, 408b)

4. Tavajjuh markabin surmak: “shikorgoh sori tavajjuh markabin surdi” (ZT, 393b)

Keltirilgan misollarda, ko‘makchili fe’llarning ot qismi arabiy qatlamga xos

[7] Nazmul-javohir. O‘zSSR Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi, № 9361, № 9944.B-17
[8]Munshaot. o‘n uchinchi tom, Toshkent, 1966.B-150

leksemalardir .

Oldingi davrlarda saroy muhitida urf-odatga aylangan an'analardan biri ov qilish jarayonidir. Podshoh, xonlar va lashkar a'zolari yoshligidan ov darslariini olib, yillar davomida mahoratlarini oshirib borishgan. Bu jarayonda hayvon va qush nomlari (italgu, ohu, burgut, qoplon) bilan bir qatorda ov mavzusi asosida birlashadigin fe'llarning ham ishtirokini ko'ramiz. Ogahiyning "Gulshani davlat" tarixiy asarida ham bu mavzu bir necha o'rinlarda tilga olingan bo'lib, quyida shu mavzu doirasida sinonomik qator hosil qiluvchi fe'llarga misollar keltiramiz. Ogahiy asarning so'nggi boblaridan birida shikor (ov) mavzusiga keng o'rin berib, xon Muhammad Rahimxon II va uning lashkarlari bilan Amu bo'ylab kechib o'tgani va ov tafsilotlarini bayon etadi. Jumladan, muallif bayon qilgan g'azalida *shikor etsang* (ov qilmoq ma'nosida) tarzidagi fe'ldan foydalanadi:

Shaho, azmi *shikor etsang* sanga Haq lutfi yor o'lsun… (GD,245b)

ushbu qo'shma fe'l shakli forsiy *shikor* oti, *et* fe'lining birikishidan va shart mayli ko'rsatkichi -sa orqali hosil qilingan. Ushbu misolda esa yuqoridagi fe'l shakli *shikor etmak* tarzida berilgan: "…*shikor etmak* dodin berdi." (GD,246b)

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ovlamoq tarzida qo'llaniluvchi ushbu fe'lning asarda *ov olmoq* tarzidagi variantini ko'ramiz: "…qush solmoq va *ov olmoq* tamoshosi bilan…" (GD,243b).

Ovlamoq so'zining yana bir ma'nodoshi *sayd etmoq* tarzida, nazmiy shaklda bayon qilingan:

Hamul kun mah solib chobuk italgu,
Hudud andozasiz *sayd etti* ohu.

Ov mavzusiga aloqador bo'lgan minmoq (ot) fe'lining ham turli sinonimlarini uchratamiz:

"Qayu sahrog'a ot *sursang*, bo'lub Hizr anda hamrohing,
Qayu manzilgakim, tushsang hafizing Kirdigor o'lsun
Qushing har uchganida sayd bo'lub bir Qof 'anqosi,
Anung har sekirganida bir Falak sheri shikar bo'lsun.
Humoyun qarchig'aying *solsang* ushbu saydgoh ichra,
Humoyi izzu shavkat sayd anga beixtiyor o'lsun
Safarda chun qila olman tanimni gardi javloning,
Hazarda maqdamingga javhari jonim nisor bo'lsun.
Sababdur amru adling xalq oromu qaroriga,
Jahon bir necha, yo Rab, umru adling barqaror bo'lsun.
Rikobing xizmatidin garchi bo'lmish Ogahiy ojiz,

Valekin jismi tufroqi janobingda g‘ubor bo‘lsun.” (GD,245b)

yuqoridagi g‘azalda *sursang, solsang* tarzidagi minmoq tushunchasini anglatuvchi sinonim fe’llar ifodalangan.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham mavjud bo‘lgan *choptirmoq* fe’li ham asardan o‘rin olgan: “orom tutub, ot *chopturub*…” (GD,244a)

O‘zaro sinonomik qator hosil qilgan yuqoridagi qo‘shma fe’llarning ko‘pchiligi ot qismi eroniy, arabiy o‘zlashmalar va turkiy fe’llarning birikuvi asosida hosil qilingan. Shuningdek, hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazelogizm sifatida qaraluvchi *kirishmoq* ma’nosini anglatuvchi *bel bog‘lamoq* iborasi ham asarda quyidagi parchalar orqali ifodalangan: “…muhoraba qilmoqg‘a *bel bog‘lab*…”, “…amrig‘a bellarini mahkam bog‘lab…”. Yuqoridagi fe’llar hozirda ibora sifatida qaralib, sintaktik jihatdan ham bitta gap bo‘lagi sifatida qaralsa, ushbu tarixiy asarda *bog‘lamoq* tushunchasi o‘timli fe’l sifatida ifodalangan.

Ogahiy tarixiy asarlaridagi o‘zaro sinonim fe’llar ichida dominanta maqomini turkiy tub fe’llar egallaydi. Masalan, vorid bo‘lmoq, ravona qilmoq sinonimik qatorida *bormoq* fe’li dominanta ekanini ko‘ramiz. Ogahiy tili leksikasi ham fe’llar rivoji va ifoda quvvati borasida eski o‘zbek tili forsiy va arabiydan qolishmasligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla O‘rozboev. Muhammad Rizo Erniyozbek O‘g‘li Ogahiy. Asarlar. 6-jild. – Toshkent: Sharq. 2019. Davlat gulshanining tuganmas tarovati B-257
2. Budagova Z. Fe'llərin lüğəti mənâ qrupları, Azərbeycan dilinin qrammatikası, I Bissə, AzSSR EA nəşri, 1960, səh. 91—94.
3. Дмитриев Н. К. Строй тюркских языков, М., 1962, стр. 579—592.
4. Ibrohimov S., Shamsiyev P. Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nash. 1972 B-487
5. Munshaot. o‘n uchinchi tom, Toshkent, 1966.B-150
6. Nazmul-javohir. O‘zSSR Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi, № 9361, № 9944.B-17
7. Sodiqova M. Fe’l stilistikasi. Fan nash. Toshkent 1975. B-61-62